

Dori davo emas, jazo bo'ldi

6-betda o'qing



15 nafar talabamiz Yevropaga boradi

8-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
20-IYUN
SESHANBA

№ 24 (1384)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/



2-betda o'qing

Kimlar saylovda ishtirok eta olmaydi?

Jazoni o'tash muassasalarida bo'lgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakillari tomonidan mahkumlar o'rtasida ularning Prezident saylovda ishtirok etishi muhimligini tushuntirish ishlari olib boriladi.



Yuridik texnikumlarga qabul

1-AVGUSTDAN BOSHLANADI

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta yuridik texnikum tashkil etilgan.



4-betda o'qing

Ijara shartnomasi majburiymi?



5-betda o'qing

Inspeksiya xodimlarining murojaati o'rganildi

Ta'kidlash lozimki, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlangan.

Yuridik texnikumlarda "Davlat huquqiy faoliyat", "Yuridik xizmat" va "Sud-huquqiy faoliyat" mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Hujjatlar joriy yilning 1-avgustidan

20-avgustgacha (shu kuni ham) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn qabul qilinadi.

Test sinovlari test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, baholash mezonlari, test topshiriqlari soni Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavriatiga kirish uchun belgilangan talablariga muvofiq bo'lib o'tadi.

Xorijiy fuqarolar yuridik texnikumlar tomonidan tashkil etiladigan suhbat natijasida qabul qilinadi.

O'qish muddati 2 yil.


Bundan tashqari, yuridik texnikum bitiruvchilariga imtiyoz jihatidan "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yo'llanmalar berish yuzasidan tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3370, 2022-yil 3-iyun) qabul qilingan.

Yuridik texnikumlar bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish qamrovini kengaytirish hamda ularga teng imkoniyat va shart-sharoit yaratish maqsadida nafaqat TDVga, shuningdek respublikada "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi boshqa oliy ta'lim tashkilotlariga suhbatda ishtirok etish uchun tegishli yo'llanmani olish tartibi belgilangan.

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Jazoni o'tash muassasalarida bo'lgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakillari tomonidan mahkumlar o'rtasida ularning Prezident saylovida ishtirok etishi muhimligini tushuntirish ishlari olib boriladi.



KIMLAR SAYLOVDA ISHTIROK ETA OLMAYDI?

Saylov kodeksining 5-moddasida sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgani uchun ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok eta olmaydi.

Saylov kuni 18 yoshga to'lgan, ozodlikdan mahrum qilingan, yuqori ijtimoiy xavf guruhiga kirmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun qamoqqa olish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylash huquqiga ega.

2019-yilda insonparvarlik tamoyillariga asoslangan saylov qonunchiligiga kiritilgan ushbu yangilik YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi 2014-yilgi parlament saylovlari bo'yicha kuzatuvchilar missiyasining tavsiyalarida ham ko'rsatilgan. Yevropadagi bir qator demokratik davlatlarning saylov qonunchiligi esa mahbuslarning saylov huquqlarini cheklashda davom etmoqda.

Ombudsman saylovga tayyorgarlik ko'rish davrida kabinalar va saylov qutilarining muvofiqligini hamda belgilangan qamoqda saqlash joylarida saylov qutilaridan foydalanishni tekshiradi.

Ozodlikdan mahrum qilish joylarida tuzilgan saylov uchastkalarida saylov huquqiga ega mahkumlar belgilangan tartibda saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Saylovchilarning ro'yxatlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida tuziladi va saylovchilarning yagona elektron ro'yxatiga kiritiladi. Harakat erkinligi cheklangan muassasalarga mahkumning saylov huquqini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish holatlari yuzasidan shikoyatlar kelib tushsa, ular darhol joyida tekshirilishi lozim.

Uchastka saylov komissiyasi mahkum saylovchilarga saylovchilar ro'yxati, saylov o'tkaziladigan joy va vaqt o'tkazilishida yo'l qo'yilgan xatolar yoki noaniqliklar to'g'risidagi shikoyatni 24 soat ichida ko'rib chiqishi hamda xato yoki noaniqlikni bartaraf etish yoki arizachiga uning shikoyatini rad etish to'g'risida asoslantirilgan javob berishi lozim.

Saylov kuni ozodlikdan mahrum qilish joylari ma'muriyati mahkumlarning saylov uchastkasiga kirishi va ularning xavfsizligini ta'minlash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilish uchun javobgardir.

Ozodlikdan mahrum qilish joylarida tuziladigan uchastka saylov komissiyalari mazkur muassasalar ma'muriyati bilan birgalikda saylovchilarni saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari, saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, saylovni o'tkazish vaqti va tartibi, shuningdek deputatlikka nomzodlar to'g'risida xabardor qilishi shart.

Fuqarolarning saylov jarayonlarida saylov huquqini ta'minlash, ularga belgilangan tartib asosida shart-sharoit yaratish hamda saylovni ochiq, adolatli va albatta, teng saylov huquqi asosida o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Faringiz YUSUPOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

E'tirof etish kerak, so'nggi yillarda mam-lakatimiz xalqaro intellektual mulk tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Xususan, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti BMT-ning 193 ta davlat a'zo bo'lgan tuzilmasidir. Ayni paytgacha O'zbekiston mazkur tashkilotning 20 ga yaqin shartnomalarini ratifikatsiya qilgan. Qolaversa, intellektual mulk munosabatlarini tartibga solishga oid 60 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Garchi, intellektual mulk huquqi milliy qonunchilimizda boshqa huquq sohalariga nisbatan yangi bo'lishiga qaramay, tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Hozir respublikamizda har bir sohada intellektual mulk huquqi va obyektlariga duch kelamiz. Masalan, yangi kimyoviy moddalarning yaratilishi, o'simliklarning yangi turlari paydo bo'lishi, adabiyotda yangi she'r yoki roman yozilishi, hattoki biron bir bino-inshootning qurilish jarayonida ham mavjud.

Yuridik adabiyotlardan ma'lumki, intellektual mulk huquqi fuqarolik huquqining o'ziga xos institutlaridan biridir. Biroq intellektual mulk obyektlarining turfa xilligi hamda ularning odatdagi ashyolardan farq qilishi, intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquq qoidalarining qo'llanilishi ushbu institutni o'rganishda bir qadar murakkabliklar mavjudligiga ishora qiladi. Qolaversa, intellektual mulk huquqining o'zi ham patent huquqi, mualliflik va turdosh huquqlar, tijorat siri huquqi, seleksiya yutuqlari huquqi, fuqarolik muomalasi qatnashchilari va ularning tovarlarining individuallashtirish vositalariga bo'lgan huquq institutlariga ajratiladi.

Intellektual mulk sohasi barcha davrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mualliflik huquqi g'oyaning o'zini emas, balki uning ifodasini himoya qiladi va ro'yxatdan o'tishning haqiqiy bo'lishini talab qilmaydi. Ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda, Amerika Qo'shma Shtatlarida mualliflik huquqi asar yaratilganda avtomatik tarzda himoya qilinadi. Biroq, asarni mualliflik huquqi doirasida ro'yxatdan o'tkazish, qoidabuzarlik uchun sudga murojaat qilish va qonun bilan belgilangan zararni talab qilish imkoniyati kabi qo'shimcha imtiyozlarni berishi mumkin.

Yurtimizda intellektual mulk huquqining ahamiyati oshib borishini raqamlar orqali ko'radigan bo'lsak, intellektual mulk departamenti keltirgan ma'lumotlarga ko'ra,

■ intellektual mulk bo'yicha kelib tushgan talabnomalar soni

→ 2018-yilda **8 ming 617 ta**

→ 2019-yilda **10 ming 142 ta**

2019-yildan intellektual mulk nizolariga oid sud jarayonlari keskin ortgan. Jumladan,

■ intellektual mulk bo'yicha kelib tushgan talabnomalar soni

→ 2016-yilda **60 ta**

→ 2017-yilda **85 ta**

→ 2018-yilda **89 ta**

→ 2019-yilda **60 ta**

→ 2020-yilda **213 ta**



Har qanday mamlakatning rivojlanganlik darajasi unda intellektual mulkning nechog'lik himoyalanganiga qarab belgilanadi. Shu ma'noda aytganda, O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida intellektual mulk huquqi kafolatlab qo'yildi. Ya'ni Bosh qomusimizning 53-moddasiga muvofiq, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI UNI TUSHUNISH VA ANGLASH KERAK



Sud jarayonlarining asosiy qismi tovar belgilarini huquqiy muhofaza etilishi bilan bog'liq nizolardir.

Intellektual mulk patentlar, tovar belgilari, mualliflik huquqlari va tijorat sirlari kabi nomoddiy aktivlarning turli shakllarini o'z ichiga oladi. U jismoniy shaxslar va kompaniyalarni tadqiqot hamda ishlanmalarga sarmoya kiritish uchun rag'batlantirish orqali innovatsiyalar va ijodkorlikni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Intellektual mulk sohasida muallif o'zi yaratgan asardan uchinchi shaxslarga foydalanishga ruxsat berishga yoki taqiqlashga haqli. Ammo har qanday monopoliya huquqi singari, mualliflik huquqi ham cheklangan tarzda talqin qilinishi kerak.

Umuman olganda, intellektual mulk sohasi hayotimizning ko'p jabhalariga, biz foydalanadigan mahsulotlardan tortib, biz tinglaydigan musiqagacha sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Intellektual mulk qonunchiligi va siyosatining murakkabligini tushunish jismoniy shaxslar va kompaniyalar uchun juda muhim. Chunki bu texnologiya va innovatsiyalarning tez o'zgarib borayotgan dunyosida ularning huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi.

Mohinur BAHRAMOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti

katta o'qituvchisi,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

TARAQQIYOTGA TO'SIQ ILLAT



Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlantirishiga jiddiy putur yetkazadi. U inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi.

Bugungi globalashgan davrda korrupsiya ko'pgina davlatlarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu bois, unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Mazkur islohotlarni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, dav-

lat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqqligini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda. Jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirilayotganligi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilinayotgani qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish va bunda korrupsiya jinoyatiga qarshi kurashish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar

amalga oshirib kelinmoqda. Iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiyaning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha tizimli choralar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni 3-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuviga doir tushunchalarga ta'rif berilgan. Ya'ni, korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatla-

rini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.

Korrupsiya illatini tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar bu illatning asosiy sababchisi deb aholi huquqiy savodxonligining pastligini ko'rsatishadi. Ularning fikricha, qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik, mansabdor shaxslarning shaxsiy manfaat yo'lida qonunlardan foydalanishi korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi. Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi yana bir qator omillar mavjudki, ularning eng zararlisi loqaydlik va beparvoligimizdir.

Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan munosabatni munosabatni shakllantirishimiz shart! Huquqiy tarbiyaning barcha shakl va usullaridan samarali foydalanishimiz zarur.

O'z huquqlarini bilmaslik salbiy illat bo'lgan korrupsiyaga yo'l ochadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan, huquqiy ta'lim va tarbiya jihatidan yetuk inson qonunlarga amal qiladi. Shunday ekan, adolat yo'lidan boraylik. Korrupsiyaga qarshi kurashishda farzandlarimizga o'zimiz ibrat bo'la olaylik!

To'lg'in TO'XTASINOV,
huquqshunos

Prezidentning 2019-yil 9-sentabr-dagi "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan mamlakatimizda notariat institutining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda notarial idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatish sifatli darajasini oshirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi.



Jumladan, mazkur farmonning 10-bandiga ko'ra, 2020-yilning 1-yanvaridan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda sudgacha bo'lgan jarayonda dalillarni ta'minlash (guvohlarning ko'rsatuvlarini yozib olish, yozma va aшыoviy dalillarni ko'zdan kechirish va guvohlantirish, ekspertiza tayinlash, Internet tarmog'idagi faktlarni tasdiqlash) yo'lga qo'yildi.

Hozirgi vaqtda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda manfaatdor shaxslarning iltimosiga binoan notarius sudda yoki ma'muriy organda ish yuzaga keltirilgan taqdirda, agar taqdim etish keyinchalik mumkin bo'lmay qoladi yoki qiyin bo'ladi deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, dalillarni ta'minlaydi.

Dalillarni ta'minlash maqsadida notarius guvohlarning ko'rsatuvlarini yozib oladi, yozma va

Notarius tomonidan dalillarni ta'minlash QANDAY AMALGA OSHIRILADI?

ashyoviy dalillarni ko'zdan kechiradi va guvohlantiradi, ekspertiza tayinlaydi, Internet jahon axborot tarmog'idagi faktlarni tasdiqlaydi. Ko'rsatilgan mazkur xizmat uchun belgilangan tartibda yig'im undiriladi.

Notarius tomonidan dalillarni ta'minlash suddan oldin ham, sud jarayoni mobaynida ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ariza beruvchi notariusga dalillarni ta'minlashi uchun bu haqida ariza bilan murojaat qiladi. Ariza umumiy tartibda, dalillarni ta'minlash sabablari ko'rsatilgan holda yoziladi.

Mazkur ariza notariusga dalillardan nusxa olish, ularni yozib olish, to'plash va saqlash uchun asos bo'ladi. Notarius dalillarni ta'minlash haqida arizani qabul qilganidan so'ng, mazkur masalaga aloqador barcha tараflarni dalillarni ta'minlash joyi va vaqti to'g'risida xabardor qilishi shart. Dalillarni ta'minlash notarius tomonidan bayonnoma tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

Bayonnomada qaysi holat bo'yicha dalil ta'minlanayotganligi, isbotlash predmeti va uning mazmuni, arizachining huquq va majburiyatlari ko'rsa-

tilishi lozim. Dalillarni ta'minlash uchun notarius guvohlarning ko'rsatuvlarini yozib oladi, yozma va aшыoviy dalillarni ko'zdan kechiradi hamda guvohlantiradi, ekspertiza tayinlaydi, Internetdagi faktlarni tasdiqlaydi. Dalillarni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan har bir harakat bayonnomada aks ettirilishi va ularda kamida ikkita xolis ishtirok etishi lozim.

Jumladan, guvohlarni so'roq qilish va ularning ko'rsatuvlarini yozib olish, agar bu guvohlar kelgusida o'tkaziladigan sud jarayonida qatnasha olmasa, ular salomatligining ahvoli og'ir bo'lsa va o'z ixtiyoriga ko'ra notarius tomonidan so'roq qilinishiga rozi bo'lsa, amalga oshiriladi. Guvohlarning ko'rsatuvlari ularni so'roq qilish bayonnomasida qayd etiladi. Ushbu bayonnoma guvoh, guvohni so'roq qilishda ishtirok etgan shaxslar va notarius tomonidan imzolanishi shart. Notariuslar tomonidan ta'minlangan dalillar sudda qabul qilinadi va dalillar majmuidan baholanadi.

Dilnoza XAYRULLOYEVA,
Shahrisabz shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius

4 "MADAD" JAVOB BERADI



Savollarga "Madad" NNT Navbahor tumani
huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi
Aziz SAIDOV javob berdi

IJARA SHARTNOMASI
MAJBURIYMI?

– Uymizni bir qarindoshimizga ijaraga berganmiz. Shunga ham 3 yil bo'ldi. Qarindoshimiz bo'lgani uchun buni qonuniy rasmiylashtirmaganmiz. Uy-joyni ijaraga berganda ijar shartnomasi tuzish kerak ekan. Bundan endi xabar topdik. Ijara shartnomasi majburiymi? Agar uy-joyni ijaraga berishda shunday shartnoma tuzilmagan bo'lsa, bu ishimiz qonuniy hisoblanadimi?



– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 159-moddasiga asosan fuqarolar o'rtasida turar joyni ijaraga berish shartnomasining, teklin foydalanishga berish shartnomasining mavjud emasligi yoxud davlat soliq organlarida ijaraga berish shartnomasining majburiy hisobga qo'yilishiga rioya etmaslik BHMning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Mazkur kodeksning 264-moddasiga muvofiq, ushbu kodeksning 159-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar davlat soliq organlariga va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi bo'linmalariga taalluqlidir.

Agar uyingizni tekinga foydalanish uchun bergan bo'lsangiz, turar joydan tekinga foydalanishni tasdiqlovchi shartnoma tuzilishi kerak. Turar joydan foydalanishda ijar shartnomasi yoki tekinga berish shartnomasi tuzilmagan bo'lsa, bu huquqbuzarlik bo'yicha ma'muriy hujjatlar (jumladan, dalolatnoma va shu kabi hujjatlar)ni soliq organlari yoki Departament xodimlari tuzishi mumkin.

Soxtalashtirilgan dalil
uchun javobgarlik bormi?

– Yaqinda shunday bir holat yuz berdi, tergovga taqdim qilingan dalillar noto'g'riligi ma'lum bo'ldi. Dalillarni soxtalashtirganlarga qanday javobgarliklar bor?

– Jinoyat kodeksining 230-moddasiga ko'ra, isbotlashni amalga oshirayotgan shaxslar yoki isbotlashda ishtirok etish uchun jalb qilinayotgan shaxslar tomonidan dalillarning tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishlari materiallari bo'yicha dalillarni to'plash, tekshirish va baholash chog'ida g'arazli yoki boshqa past niyatlarda hujjatlarga yoxud ashyolarga bila turib yolg'on ma'lumotlarni kiritishda va o'zga buzib ko'rsatishlarda namoyon bo'ladigan soxtalashtirilishi (qalbakilashtirilishi), – bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Kredit
olish uchun
ID-karta
bo'lishi
kerakmi?

– Shu yil 1-iyundan boshlab fuqarolar tomonidan banklardan kredit olish uchun biometrik pasport bo'lishi talab etilayotganini eshitdim, shu rostmi?

– Prezidentning 2023-yil 31-yanvardagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2023-yil 1-iyundan boshlab Markaziy bank, vakolatli banklar Personnallashtirish agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi bilan birgalikda aholi va tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish jarayonida qarz oluvchini ID-kartadagi (biometrik pasportdagi) biometrik ma'lumotlar asosida identifikatsiya qilishni yo'lga qo'yish kerakligi belgilangan. Bu 1-iyundan ID-kartasi bo'lmagan talabgorlar kredit olishda muammolarga duch kelishi mumkinligini bildiradi.

Uyimni nomimga
rasmiylashtira olamanmi?

– Men yashab kelayotgan uy qishloqda yakka tartibda uy-joy qurish uchun ajratilgan yer maydoniga bundan 19 yil avval qurilgan. Lekin, shu paytgacha yashab kelayotgan uyimni qo'limda hech qanday hujjatlari bo'lmagani uchun o'z nomimga rasmiylashtira olmayapman. Men qanday qilib qonuniy tartibda shu uyga egalik huquqini olib, uyni o'zimning nomimga rasmiylashtirishim mumkin?

– Fuqarolik kodeksining 187-moddasida egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat nazarda tutilgan bo'lib, bunda mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulkka 15 yil davomida yoki boshqa mol-mulkka 5 yil davomida o'zini kabi balot, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqini olishi mumkinligi ko'rsatilgan. Siz hozir yashab kelayotgan uyingizni o'z nomingizga qonuniy tartibda rasmiylashtirib olishingiz uchun kodeksning 187-moddasi sizga yordam beradi. Buning uchun fuqarolik ishlari bo'yicha sudga shu mazmunda murojaat qilishingiz kerak.

SUDLANGANLIK QAYSI
PAYT TUGALLANADI?

– Shaxsning sudlanganlik holati qaysi payt tugallanadi?

– Jinoyat kodeksining 78-moddasiga ko'ra, shaxsning sudlanganlik holati quyidagi paytlarda tugallanadi:

- ✓ shartli hukm qilinganlarga nisbatan – sino'v muddati tugagan kundan boshlab;
- ✓ majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazolarini o'tab chiqqach;
- ✓ jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talganidan keyin bir yil o'tgach;
- ✓ ozodlikni cheklash jazosi o'talganidan keyin – ikki yil o'tgach;
- ✓ besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – to'rt yil o'tgach;
- ✓ besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – yetti yil o'tgach;
- ✓ o'n yildan ortiq, lekin o'n besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – o'n yil o'tgach.

TOSHKENT

DA'VO QANOATLANTIRILDI

Natijada tuman adliya bo'limi tomonidan Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirzo Ulug'bek tuman bo'limi hisoblamaslikka oid qismini haqiqiy emas, deb topish maqsadida va O. Xaritonovanning manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga da'vo ariza kiritildi. Sudning 2023-yil 10-apreldagi hal qiluv qarori bilan da'vo qanoatlantirilib, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi zimmasiga pensiya tayinlashda O. Xaritonovanning 2005-yil 1-apreldan 2009-yil 29-iyunga qadar ishlagan davrlarini umumiy mehnat stajiga qo'shib hisoblash majburiyati yuklatildi.

Shokir YUSUPOV,
Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi boshlig'i

SIRDARYO

Sirdaryo tuman adliya bo'limi-ga Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining Sirdaryo tuman bo'limi xodimi M. Sodiqov va bir guruh xodimlaridan murojaat kelib tushdi.



INSPEKSIYA xodimlarining murojaati o'rganildi

Murojaatda Inspeksiya xodimlari Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya-si xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotib olish uchun yilda bir marotaba bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida moddiy yordam to'lovlari to'lab berilmaganidan norozi bo'lib, shikoyat qilishgan.

Murojaatni o'rganish jarayonida bayon etilgan e'tirozlar o'z tasdig'ini topdi. Tuman adliya bo'limi tomonidan xodimlar manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Sirdaryo tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Da'vo ariza qanoatlantirilib, sud buyrug'i bilan Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo'limining 17 nafar xodimiga 60 million so'm moddiy yordam puli undirib beriladigan bo'ldi.

Kamoliddin ERNAZAROV,
Sirdaryo tuman adliya bo'limi boshlig'i

SAMARQAND

TADBIRKORNING HAQQI UNDIRILDI



Tadbirkor N. Berdiyev hamda Paxtachi tuman Obodonlashtirish boshqarmasi o'rtasida 2022-yilda bir nechta shartnoma tuzilgan bo'lib, unga ko'ra, tadbirkor 942 million 632 ming 934 so'mlik ish bajarib, o'z vaqtida topshirgan. Ammo unga ish haqi to'lanmagan.

N. Berdiyev boshqarma bilan o'rtada nizo kelib chiqqach, o'z qonuniy manfaatlarini ta'minlanishini so'rab, tuman adliya bo'limiga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Bo'lim tomonidan tadbirkor manfaatini ko'zlab, Kattaqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud iqtisodiy protsessual kodeksi 118, 176-180-moddalarini qo'llab, tadbirkor foydasiga salkam bir milliard so'm undirish haqida qaror qabul qildi.

Sardor ALIYEV,
Paxtachi tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

QORAQALPOG'ISTON



Qonliqo'l tumanidagi bir qator muassasa va tashkilotlarda xodimlarning malaka oshirish uchun xizmat safariga jo'natilishi va ushbu xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarning ish beruvchilar tomonidan qoplab berilmayotganidan noroziligi to'g'risida murojaatlar kelib tushmoqda.

XARAJATLAR hisob-kitob qilindi



Jumladan, tuman tibbiyot birlashmasining shifokor va hamshiralardan iborat 16 nafar xodimi Nukus shahrida malaka oshirganlik bo'yicha kunlik xarajatlar uchun, ayrim xodimlarga nisbatan yo'lkira va yashash xarajatlari uchun chiqimlarning qoplab berilmayotgani to'g'risida tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

O'rganish jarayonida tegishli mansabdor shaxslar tomonidan "Xodimning malaka oshirishi, xizmat safariga borish hisoblanmasligi, hattoki xodimlarning malaka oshirishi ularning o'zlari uchun amalga oshirilayotganligi" ta'kidlandi.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-apreldagi "Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 7-bandi ikkinchi xatboshisida - asosiy ishidan ajralgan holda tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish kursiga jalb qilingan boshqa shaharlik tinglovchilarga o'qish o'rniga bir marta borish va kelish, shu jumladan, ish beruvchi hisobidan yashash xarajatlari qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, xodimlarning huquqlarini himoya qilish va xizmat safari bilan bog'liq xarajatlari qoplanishini ta'minlash maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'ng'iro't tuman sudiga da'vo arizasi kiritildi. Natijada murojaat mualliflariga 40 million so'mga yaqin xarajatlari to'lab berildi.

Asilbek ISKENDEROV,
Qonliqo'l tuman adliya bo'limi boshlig'i

6 SUD ZALIDAN



Qo'qon shahrida yashovchi Dilnavoz Samijonova (ism-shariflari o'zgartirilgan) 2 nafar farzandi bilan oilasidan ajrashgach, juda qiyin ahvolga tushib qoladi. Negaki, qo'lida tayinli kasbi yoki hunari yo'q edi. Muhtojlik joniga tekkan juvon o'zgalari bilan ko'ngilxushlik qilib kun kechirish yo'lga o'tib oldi.

QALBAKI PUL "OPERATSIYA"SI



Ana shunday kunlarning birida unga o'zidan 16 yosh kichkina Solijon Ahmadaliyev ilakishib qoladi. Bir tomondan yosh, ikkinchi jihatdan uylanmagan yigit bo'lgani bois Dilnavoz Solijonni qo'yib yuborgisi kelmaydi. Ammo yigit bo'lmish "ma'shuqa"sinini moddiy jihatdan ta'minlay olmaydi. Oqibatda D. Samijonova jinoyatga qo'l uradi.

Gap shundaki, 2022-yilning oktabr oyi boshlarida u uyali telefoniga Gruziyaning "TBS-bank" mobil ilovasini yuklagan holda 10 million so'm miqdorida kredit oladi. Biroq kredit mablag'ini qaytarishning "antiqa" yo'lini o'ylab topadi. Ya'ni, Dilnavoz 1 dona "LG" rusumli monitor, "Samsung" rusumli protsessor va "Epson" rusumli rangli printer sotib oladi. So'ng 200 ming so'mlik kupyuradagi puldan nusxa ko'chirib ko'radi. Qarasaki, nusxadan chiqqani aslidan deyarli farq qilmaydi. Va yana bir necha dona qalbaki 200 ming so'mlik kupyura chiqaradi.

– Siz mana bu pullarni savdo do'konlaridan haqiqiysiga almashtirib keling, – deydi xushtoriga "sir"ni ochgach, 7 dona qalbaki 200 ming so'mlikni 1 million 400 ming so'm hisobida berib.

Solijon qalbaki kupyuralarning 2 tasini eski tanishi Mami-tali Abdujamolovdan bo'lgan 400 ming so'm qarzi evaziga beradi. Lekin ertasi kuni M. Abdujamolov pullarning qal-baki ekanini bilib qoladi. Binobarin, u qarzidan voz kechishini aytib, 1 million so'm hisobida yana 5 ta kupyura oladi. Oradan bir necha kun o'tib, D. Samijonova S. Ahmadaliyevga yana 10 dona qalbaki kupyurani 2 million so'm miqdorida beradi.

Umuman olganda, "uddaburon" xonim yuqoridagi jami 3 million 400 ming so'm qalbaki kupyura evaziga oz-ozdan qilib, 1 million 900 ming so'm haqiqiy pul oladi.

Buni qarangki, Solijon Mamitalining iltimosiga binoan so'nggi 10 dona kupyurani 700 ming so'm evaziga almashtiradi. Chunki M. Abdujamolov allaqachon ularni haqiqiy pulga almashtirishni boshlab yuborgandi. Ya'ni, u shahardagi do'konlardan mayda-chuyda mahsulotlar sotib oladi. Sotuvchiga 200 ming so'mlik qalbaki kupyurani berib, qaytini olib ketaveradi. Lekin xaridorning yangi, buklanmagan pul bergani sotuvchi O. O'lmasovda shubha uyg'otadi. Shu bois u kupyurani darhol tekshirib ko'radi. Pirovardida o'zining qalbaki pul evaziga savdo qilganini anglab yetadi. So'ngra Qo'qon shahar ichki ishlar bo'limiga murojaat qiladi.

Darhaqiqat, shahar IIB tezkor xodimlari tomonidan olib borilgan surishtiruv jarayonida qalbaki pullar aшыoviy dalil tariqasida olinadi. Oqibatda D. Samijonova, S. Ahmadaliyev va M. Abdujamolovlarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi esa ularni Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybdor deb topib, qonuniy jazoga mahkum etdi.

Nodirjon KIMSANOV,

jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi sudyasi

Ma'lum bo'lishicha, S.S. tegishli maxsus lit-senziya va retseptsiz, qonunga xilof ravishda 28 dona "Regapen 300" va 4 dona "Tropikomid 10 ml"ni 1 million so'mga sotgan vaqtida aшыoviy dalillar bilan ushlangan.

Ichki ishlar vazirligi EKM bosh markazining xulosasiga ko'ra, S.S.dan olingan dori vositasi va tomizg'i kuchli ta'sir qiluvchi moddalar sirasiga kiruvchi ekani ma'lum bo'ldi.

– Dorixonada farmatsevt bo'lib ishlayman, – dedi sudlanuvchi S.S. – Vazifam dorixonaga dori-larni olib kelish, qabul qilib olish, narxlarni qo'yish va kelgan mijozlarga sotish-dan iborat. Chilonzor tumanidagi "Qatortol" ko'chasida notanish shaxsdan o'zim iste'mol qilish uchun "Regapen 300" dori vositasi-ni hamda 4 dona "Tropikomid 10 ml"ni sotib olganman. Bir kuni bir xaridor kelib ana shu dori vositalarini so'radi. Men unga so'rayot-gan dorilar borligini aytdim. Qisqasi, xaridorga qonunga xilof ravishda 1 million so'mga sot-ganman. Xato qildim. Aybimni tan olaman. Boshqa bunday ishga qo'l urmayman.


Sud davlat ayblovcisining xulosasi va hi-moyachining ma'ruzasini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqdi. Sud sudlanuvchi-ga jazo turi va miqdorini tayinlashda jinoyatni g'araz niyatda, ko'pchilik uchun xavfli usulda sodir etganini jazoni og'irlashtiruvchi holat si-fatida e'tirof etdi. Shuningdek, uning shaxsini, muqaddam sudlanmaganini, qilmishidan pu-shaymonligini, oilaviy sharoitini, qaramog'ida voyaga yetmagan uch nafar farzandi borligini jazoni yengillashtiruvchi holat, deb baholadi.

Sud farmatsevt S.S.ni Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topdi. U 7 yil mud-



Har bir ishda qonun-qoida-ga amal qilgan ma'qul. Qonun-qoidalarni mensima-gani S.S.ga qimmatga tushdi. U norasmiy ishlayotgan mas'uli-yati cheklangan jamiyatga qarashli dorixonada o'tkazil-gan nazorat tadbirida 14 dona "Regapen 300" dori vositasini 280 ming so'mga hamda "Tropikomid 10 ml" tomizg'isini 200 ming so'mga sotgan vaqti-da "qopqon"ga tushgan.

Dori davo emas, JAZO BO'LDI



datga ozodlikdan mahrum etildi. Noqonuniy faoliyat, ruxsatsiz ish tutish oqibati ayanch-li yakun topdi. Dorilar kimgadir balki davo bo'lgandir, ammo unga qattiq jazo bo'ldi.

Husanboy PARPIYEV,

jinoyat ishlari bo'yicha Yakkasaroy tuman sudi sudyasi



Biznes-ombudsman devoniga Qarshi shahrida faoliyat yurituv-chi "Omad" MChJ (tadbirkorning nomi o'zgartirilgan) debitor qarzdorlikni undirishda amaliy yordam so'rab murojaat qilgan.

SUDYANING XATOSI TADBIRKORGA "QIMMATGA TUSHARDI"!



Aniqlanishicha, "Omad" MChJ va viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi o'rtasida 2020-yil 1-dekabrda loyiha-smeta hujjatla-rini ishlab chiqish bo'yicha 19-20-son shart-noma imzolangan.

Shartnoma shartlari MChJ tomonidan bajarilgan bo'lsada, viloyat injiniring kom-paniyasi 675 million 600 ming so'm mab-lag'ni to'lab bermagan.

Keyinchalik, injiniring kompaniyasi MChJga 30 million 403 ming 305 so'm to'lovni amalga oshirib, qarzdorlikni qisman bartaraf qilgan.

Biznes-ombudsman tomonidan MChJ manfaatida Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza kiritildi.

Qarshi ish hujjatlarida injiniring kompani-yasining MChJ oldida 645 million 196 ming

695 so'm qarzdorlikni rad etib bo'lmaydi-gan dalillar mavjud bo'lsa-da, sudning 2023-yil 27-yanvardagi hal qiluv qarori bilan injiniring kompaniyadan MChJga 172 million 285 ming 395 so'm qarzdorlikni undirish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilingan.

Mazkur sud qarori yuzasidan apellyatsiya shikoyati berildi.

Qashqadaryo viloyat sudi iqtisodiy ish-lar bo'yicha sudlov hay'atining qarori bilan birinchi instansiya sudining hal qiluv qaro-ri o'zgartirilib, MChJ foydasiga 645 million 196 ming 695 so'm qarzdorlikni undirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ismoil SAYITOV,

Biznes Ombudsman devonining Qashqadaryo viloyatidagi sho'ba-xodimi



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada shaxs huquqlari kafolatlarini ta'minlash va ularni yanada kengaytirishga qaratilgan kafolatlar konstitutsiyaviy norma sifatida belgilab qo'yildi.

SHAXS HUQUQLARINING KAFOLATI MUSTAHKAMLANMOQDA

Xususan, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi ekanligidan kelib chiqib, Konstitutsiyaga O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanishiga oid norma (25-modda) kiritildi.

O'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi norma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga 2008-yilda kiritilgan. Bu taqiq Konstitutsiya darajasida mustahkamlanmoqda.

Ikkinchidan, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kengaytirildi. Jumladan, "Xabeas korpus akti" va "Miranda qoidasi"ni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash orqali inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlarini sezilarli kuchaytirildi. Jumladan:

- tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo'l qo'yimaslik maqsadida shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi;
- shaxsni ushlab chiqarishda unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi mustahkamlab qo'yildi;
- hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emasligi, uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi belgilanmoqda;
- har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlarini sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi mumkinligi belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinguniga qadar, telefon orqali so'zlashuvlarni eshitib turish va tintuv o'tkazishga sanksiya berish vakolati prokurorda edi. Inson huquqlarining sud himoyasi kafolatlarini ta'minlash va tergov ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish maqsadida telefon so'zlashuvlarini eshitish va tintuv o'tkazishga sanksiya berish vakolati prokurordan sudga o'tkazildi.

Uchinchidan, "aybsizlik prezumpsiyasi" prinsipining kafolatlarini yanada mustahkamlandi. Xususan:

- aybsiz insonlar jazoga tortilishi mumkin emasligi belgilandi, ya'ni agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi hamda har kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi;
- ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega;
- sudlanganlik va uning oqibatlari qarindoshlarga ta'sir qilmasligi belgilandi. Ya'ni shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi mustahkamlandi.

To'rtinchidan, yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishiga oid norma mustahkamlandi, ya'ni har kim davlat organlarining, mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.

Beshinchidan, malakali yuridik yordam olish huquqi hamda yuridik yordamning davlat hisobidan ko'rsatilishi konstitutsiyaviy norma sifatida belgilandi. Shaxsning ish yuritishning qaysi bosqichidan boshlab yuridik yordam, ya'ni advokat xizmatidan foydalanish huquqiga ega ekanligiga aniqlik kiritildi. Xususan, shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa, uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligi konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi shaxs huquqlarining kafolatlarini yanada mustahkamlash orqali ochiq va adolatli jamiyat qurish, sud-huquq islohotlarini izchil amalga oshirish va inson huquqlari kafolatlarini hamda ularning ishonchli himoya qilinishi uchun xizmat qiladi.

Sunnat MAHMUDOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi



Ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun ruxsatnoma qanday olinadi?

Ommaviy tadbirlarni, konsert-tomosha tadbirlarini hamda umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan ommaviy tadbirlarni o'tkazish ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi. Ommaviy tadbirni o'tkazish uchun ruxsatnoma – ommaviy tadbirni o'tkazish huquqini beradigan, vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan va ommaviy tadbir tashkilotchisiga beriladigan qaror hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunida ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun ruxsatnoma tushunchasi, ruxsatnoma olish tartib-taomillari belgilangan.

Qonunchilikka ko'ra, ommaviy tadbirlar ikkiga – birinchi toifadagi ommaviy tadbirlar va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarga bo'linadi. Ommaviy tadbir deganda 100 va undan ko'p kishilarning ishtirokida ijtimoiy-siyosiy (anjumanlar, konferensiyalar, s'ezdlar va boshqalar), madaniy-ommaviy va ko'ngilochar-tomosha dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o'yinlar, ko'rik-tanlovlar va boshqalar) tushuniladi. Shuningdek, umumxalq, diniy, kasb bayramlarini o'tkazish maqsadida ommaviy tadbirni o'tkazish ob'ektida tashkil qilinadigan tadbirlar ham ommaviy tadbirlar hisoblanadi.

Ommaviy tadbirni tashkil qilish va o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga olgan davlat organi, yuridik shaxs va 18 yoshga yetgan jismoniy shaxslar ommaviy tadbir tashkilotchisi bo'lishi mumkin. Sud tomonidan ishga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb topilgan, sud hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylaridagi, yil davomida ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka takroran tortilgan jismoniy shaxslar, faoliyati qonun tomonidan belgilangan tartibda to'xtatib qo'yilgan yoki taqiqlangan nodavlat notijorat tashkilotlari

ommaviy tadbirlarning tashkilotchilari bo'lishi mumkin emas.

Ommaviy tadbirlar uchun ruxsat etish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ ichki ishlar vazirligi, tumanlar (shaharlar) ichki ishlar bo'limlari hisoblanadi. Ichki ishlar vazirligi xalqaro va umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun hamda birinchi, tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlari esa ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun ruxsatnoma beradi.

TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR

Talabgor – ommaviy tadbirni tashkil qilish va o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga olgan davlat organi, yuridik shaxs va 18 yoshga yetgan jismoniy shaxs tomonidan tegishli tartibda ichki ishlar vazirligiga yoki tuman (shaharlar) ichki ishlar bo'limiga ariza beriladi.

Arizada yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli barcha zarur ma'lumotlar, tadbir tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan dastur, uni o'tkazish ob'ekti va maqsadlari, tadbirni o'tkazish sanasi va aniq vaqt, javobgar shaxslar, tadbirning vaqt bo'yicha jadvali (bosqichma-bosqich rejasi) aniq ko'rsatilishi kerak.

Shuningdek, foydalaniladigan texnik va muhandis-texnik vositalar (sahna maydonchasi, ovoz kuchaytirish, elektr ta'minoti manbai, chiroq va pirotexnika bilan bezatilishi, tibbiy xizmat ko'rsatish, ommaviy tadbir o'tkazilgandan keyin hududning yig'ishtirilishi) ham arizada ko'rsatiladi. Ariza tegishli tartibda vakolatli organ tomonidan 10 ish kunida ko'rib chiqiladi.

Ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risidagi qarordan yoki tegishli ma'muriy organ mansabdor shaxsining xatti-harakatlaridan norozi bo'lgan taraf qonunda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin. Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilgani uchun yig'im hamda arizani ko'rib chiqish uchun yig'im undirilmaydi.

RUXSATNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

Ruxsatnoma talabgorning arizasiga muvofiq muayyan tadbirni bir marotaba o'tkazish uchun beriladi. Ommaviy tadbirlar, ya'ni kinoseanslar, teatr spektakllari, sirk tomoshalari bir turdagi dastur bo'yicha aynan bitta ommaviy tadbirni o'tkazish ob'ektida aynan bitta tashkilotchi tomonidan o'tkazilsa, talabgorning arizasida ommaviy tadbirlarning sonini ko'rsatgan holda uzog'i bilan bir yil muddatga beriladi.

Ushbu talablarni bajarmaslik vakolatli ma'muriy organ tomonidan ommaviy tadbirni o'tkazish ruxsatnomasining amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish yoki ruxsatnomani bekor qilishga asos bo'ladi. Ommaviy tadbirni o'tkazish sanasi va vaqtning kechroq muddatga ko'chirilishi, uning tomoshabinlarsiz o'tkazilishi yoki ommaviy tadbirning bekor qilinishi to'g'risidagi qaror qabul qilinishi mumkin.

Yusuf SAIDAZIMOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi

8 XALQARO HAMKORLIK



Toshkent davlat yuridik universiteti xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish borasida yetakchi oliygohlardan hisoblanadi. Ayniqsa, universitetda o'quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot hamda turli tashkiliy masalalarda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va takomillashtirishga, xorijiy tajribani ta'lim jarayonida qo'llashga e'tibor qaratib kelinmoqda.

15 nafar talabamiz Yevropaga boradi



Professor-o'qituvchilarning malaka oshirishi hamda stajirovka o'tashi, talabalarning esa akademik almashinuv asosida xorijiy hamkor universitetlarda bilimlarini oshirishiga sharoitlar yaratilmoqda. Toshkent davlat yuridik universiteti hamda Germaniyaning Regensburg universiteti o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik memorandumini imzolangan. Memorandumda o'zaro talabalar va o'qituvchilar, doktorantlar, ilmiy materiallar almashinuvi, turli grant loyihalarida birgalikda harakat qilish va boshqa ta'lim jarayoni bilan bog'liq masalalarda hamkorlik o'rnatish belgilangan.

Shuningdek, memorandum asosida TDYU-da "Nemis huquqi va qiyosiy huquqshunoslik" markazini tashkil etish nazarda tutilgan. Markazda germaniyalik olimlar tomonidan talabalarga 2 yil davomida nemis tili va huquqini o'rgatish hamda bir vaqtning o'zida Germaniyaning Regensburg universiteti diplomini olish imkoniyatini yaratish rejalashtirilgan.

Hozirda TDYUning barcha xodimlari va talabalari uchun IELTS kurslari yo'lga qo'yilgan. Haftaning har chorshanba kuni "Xorijiy tillarni o'rganishni keng ommalashtirish" kuni deb e'lon qilingan. Xorijiy tillar kafedrasida xalqaro sertifikatlariga ega 25 nafar xorijiy til mutaxassislari faoliyat yuritadi. Darslar ingliz, fransuz va nemis tillarida olib boriladi.

Kafedrada xorijiy tillarni puxta o'rganish bo'yicha turli klublar tashkil qilingan. Angliya va Uels huquq jamiyatining xalqaro bo'limi a'zosi bo'lgan Global Legal English bilan hamkorlik olib borilib, Toshkent davlat yuridik universiteti

TOLES (Test of Legal English Skills) xalqaro sertifikatiga ega bo'lish uchun imtihon topshirish bo'yicha mamlakatimizdagi birinchi markaz deb tan olindi.

Asosiy maqsad talabalarning kasbiy malakasini oshirishda xorijiy til ko'nikmalarini shakllantirish, huquqiy chet tilini mukammal o'rgatish va xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan huquqshunos kadrlar tayyorlashdir. Shu maqsadda, Germaniyaning Akademik almashinuv xizmati (DAAD)ning xalqaro stipendiyasi "Chet ellik talabalar uchun o'quv mashg'ulotlari va tanishuv programmasi" doirasidagi xalqaro tanlovda TDYU talabalar jamoasi ham qatnashishi rejalashtirilgan.

Ushbu xalqaro tanlov joriy yil 29-iyundan 17-iyulgacha Germaniyaning Galle, Myunxen, Regensburg shahridagi nufuzli universitetlarida o'tkaziladi. Unda TDYUning 15 nafar eng qobiliyatli va a'lochi talabalari ishtirok etadi. Germaniyadagi universitetlar o'qituvchilari boshchiligidagi chet ellik talabalar guruhlarining o'qish safarlarini qo'llab-quvvatlash uchun Federal Tashqi ishlar vazirligi (AA) mablag'laridan foydalaniladi. Dastur doriyasida chet ellik talabalar va doktorantlar kamida ikkita nemis universitetiga tashrif buyurib, nemis universitetlari dunyosi, madaniyati va siyosiy hayoti haqida yaqindan ma'lumot olishadi.

Germaniyaning Akademik almashinuv xizmati (DAAD) – tashqi siyosatning madaniyat, fan, ta'lim va rivojlanish masalalari bo'yicha muhim dastur hisoblanadi. Ushbu dastur qariyb 90 yil davomida yosh tadqiqotchilarga dunyo bo'yicha xalqaro tajriba almashish imkonini berib kelmoqda. Turli stipendiyalar bilan taqdirlash mazkur dasturning serqirra aspektlaridan biridir.

DAAD nemis universitetlarida turli millat vakillari tahsil olishini, chet davlatlarda nemis tadqiqotlari va nemis tilining yayilishini, xorijda yangi nufuzli universitetlarning ochilishini ta'minlaydi. DAAD xodimlari xalqaro tajribaga ega va turli grant sohiblari sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kunda Nemis almashish akademik xizmati (DAAD) dunyodagi eng katta tashkilot sanaladi. U turli vazirliklar, xususan, Tashqi ishlar vazirligi, Ta'lim va tadqiqot Federal vazirligi, iqtisodiy kooperativ va rivojlanish Federal vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi. Yevropa Ittifoqi tashkilotining eng yirik moliyaviy homyaridan biri hisoblanadi.

Aslida DAAD uchta maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, qobiliyatli stipendiyasi – eng a'lochi va qobiliyatli nemis hamda xorijlik talabalarni, tadqiqotchilarni stipendiya bilan taqdirlaydi. Germaniyada va xorijda xalqaro kvalifikatsiyaga mos keluvchi oliy ta'lim tizimini – millatlararo hamkorlikni yaratadi. Shuningdek, dunyoda samarali hamkorlikni rivojlantirish uchun ta'lim madaniyati va oliy ta'lim tizimida ekspertizani tizimlashtirish, rivojlantirish va ta'minlashda akademik hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

Muyassar BAXRIDINOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

ADABIY AYVON

Sovg'a

Hamma ayollar singari Hanifa ham sovg'a olishni yoqtiradi. Albatta, eridan. Afsuski, er bo'lmish buni doim unutadi. Balki eslagisi kelmas. So'nggi paytlarda ayol sho'rlik ro'zg'oridan orttirgan tangalarini biror bayram yoki tug'ilgan kuni arafasida eriga tutadigan bo'ldi:

– Jon dadasi, menga biror narsa yoki gul sotib olib, sovg'a qiling...

Yo'q! Pul cho'ntakka tushadi-yu, gulga yetmaydi. Aksari hollarda "dadajonisi" uyga shirakayf bo'lib, bayramlab qaytadi. Keyingi javraganing bir pul.

Mahallaning ayollari "gap" o'ynashadi. Bu gal Hanifaning navbati. Ziyofat ertaga – bayram kuniga belgilangan. Bugun Hanifa ertalabdan tayyorgarlikni boshladi. Pishiriqlarni saranjomlab, o'sma-surmani me'yoriga keltirishdan avval so'nggi paytlari ancha "odam" bo'lib qolgan eriga yuzlandi:

– Dadajonisi, ertaga, bilasiz, ayollar bayrami! Men ham ayolman. Ovsinlarimning orasida gerdaiyb yurgim keladi. Hanifa kamzuli cho'ntagidan bir hovuch tanga chiqardi.

– Mana shunga, boshqa sovg'a yetmas-ov, uch donagina gul olib keling-chi!

Iltilos! Faqat o'tgan yilgiday bo'lmisin-a? Bayram ertaga, ertaga bayramlaysiz, ulfatlaringiz bilan...

Ertasiga ertalabdan erini ko'chaga kuzatar ekan, qattiq tayinladi:

– Kech qolmang-a, tezroq qayting! Mahallaning kelinlari ko'rsin menga sovg'a berganingizni, havas qilsin!

Ziyofat boshlandi. Mehmonlar mezbannoning pazandaligini maqtay, yeb-ichib o'tirishdi. Maza qilib gurunglashishdi. Kun peshindan oqqanida ayollar ketishga ruxsat so'rashdi.

"Aytilmagan qishloqning itigacha qolmadi-ku", deya Ra'no kelin gapni yakunladi. Shu payt darvoza tomondan "Kennoyjon, omonatni olib qoling!" degan tovush eshitildi. Hanifa tanish ovozi eshitib, darvoza tomon yurdi. Ochiq darvozadan kenja qaynisi erini yetaklab kirib keldi.

Kayfining zo'ridan hadeb iljayayotgan eriga qaradi-yu, "Gul-chi, gul qani?" deya shivirladi ko'zlariga yosh qalqib. Eri esa qo'ltig'idagi plastikdan yasalgan gultuvakni unga uzartarkan:

– Bayraming bilan, xotinjon! – dedi baralla ovozda.

– Mana, tuvagi kepti-yu, guli ham kepqolar! – deya qaynisi hazillashgan bo'ldi.

Hanifa orqasiga o'girildi. Oynavand ayvonda o'tirgan o'n bir ayol deraza-yu eshikdan mo'alab, ulardan ko'z uzmay turardi. Hanifa qult etib yutib qo'ydi-da, ayollarga eshittirib:

– Voy, buncha chiroyli! Rahmat, dadajonisi!

Ko'pdan beri shunaqasini orzu qilib yuruvdim! – dedi sho'x-shodon ovozda...

Sohiba G'AYBULLA qizi

E'LOMLAR

"LAWYER POLVANOV" advokatlik byurosi advokati Polvanov Iskandar Shumratovich Jinoyat ishlari bo'yicha Chirchiq shahar sudining 2022-yil 22-dekabrda hukmi bilan Jinoyat kodeksi 139-moddasi 3-qismining "g" bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda aybli deb topilganligi sababli uning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokat maqami Toshkent viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 12-iyundagi 153-um-sonli buyrug'i bilan tugatildi.

Yunusobod tuman davlat xizmatlari markazi tomonidan 2020-yil 15-iyunda ro'y-xatdan o'tgan, Yunusobod tumani, 6, "Turkiston" MFY, 26, 32 manzilda joylashgan "ACCOUNTING-SERVICES" xususiy korxonasiga tegishli bo'lgan muhr (pechat) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2020-7817



**Bosh
muharir**

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorab Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3850
Buyurtma – 1794

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohi ko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5